

Oshiq Erkin Ijodida Dialektizmlar

*Qodirova Shahlo*¹

Dialektizmlar — adabiy tildagi dialektlarning o‘ziga xos hududiy unsurlari sanaladi va tilshunoslikning barcha sohalari (fonetika, leksika, morfologiya, sintaksis va boshqalar)ga taalluqlidir. Badiiy ijodda dialektizmlar narsa, voqea va hodisaga mahalliy urg‘u berish maqsadida qo‘llaniladi, bundan tashqari personaj nutqini individuallashtirish uchun foydalaniladi. Biroq, bunday qo‘llash tufayli dialektizmlar adabiy tilga oid bo‘lib qolmaydi.

Dialektizmlarni qo‘llash uslublararo ham cheklangan. Badiiy uslubda ancha keng, publitsistik uslubda qisman qo‘llangani holda ilmiy, rasmiy uslublarda deyarli uchramaydi. Ba‘zi so‘zlar adabiy til va dialektida qo‘llangani holda boshqa dialektida boshqa ma‘noni ifodalaydi. Dialektizmlardan o‘rinli foydalanish badiiy ijodning, umuman nutqning badiiyligini, uslubning fazilatini oshiradi².

Oshiq Erkin ijodida ham dialektizmlarni kuzatamiz. Asli xivalik bo‘lgan ijodkor she‘rlarida mahorat bilan dialektizmlarni qo‘llanganligini uning “Dildorim bo‘lib qol mani”, “Shu odating yomon sani”, “Nadagan go‘zalsan, go‘zalsan, go‘zal”, “Ishonmayman”, “Hazlikdur, to hayot bor” she‘rlari orqali bilib olishimiz mumkin.

“Dildorim bo‘lib qol mani” she‘ridagi shevaga oid so‘zlarni ko‘rib chiqamiz.

Kamolotga yetibdursan,

Ay, yomona ketibdursan,

Og‘angni lol etibdursan,

Ey, qoraqosh, ey qorako‘z,

Hayronlar aylab hammani

Dildorim bo‘lib qol **mani**.³

She‘rda 4o‘rinda dialektizmlar mavjud bo‘lib, ular *Äj* shevadagi so‘z *ey* o‘rnida, *jamana kefibdürsän* so‘zi esa *o‘zgacha ko‘rinishdasan yoki boshqachasan, yoqimlisan* degan ma‘nolarda kelgan. *Akangni* so‘zi *ayayni og‘angni, meni* so‘zi *mäni* tarzida qo‘llangan.

“Ishonmayman” she‘ri

O‘ldim- qoldim degan gaplaringiz yolg‘on,

Soya bo‘lmang izimda, qo‘ying, **og‘ajon**.

Yaxshi yigit, o‘lsam ham sizga hech qachon

Ishonmayman, ishonmayman, ishonmayman⁴.

Shoir ushbu she‘rida *ayažan og‘ajon* so‘zini *akajon* o‘rnida ishlatgan. Shuni ham ta‘kidlab o‘tish kerakki, Oshiq Erkin o‘zining ayrim she‘rlarida bir yoki ikki o‘rinda shevaga oid so‘zni qo‘llaydi. Bu orqali she‘rni nafaqat she‘r ixlosmandlari, balki dialekt egalari ham qiziqib o‘qishini ta‘minlaydi.

“Shu odating yomon sani” she‘ri

Yo‘llarimni ondib, jonim, qaynatarsan damda qonim,

¹ Urganch davlat universiteti 201-guruh talabasi

² O‘zME. Birinchi jild. Toshkent. 2000-yil

³ Oshiq Erkin. O‘lguncha sizni derman. –T., “G‘afur G‘ulom”, 2007. –B.114

⁴ Oshiq Erkin. O‘lguncha sizni derman. –T., “G‘afur G‘ulom”, 2007. –B.196



Yo'qdur to'y o'tgandan buyon ta'qibsiz yurgan bir onim.

Laylivashim, hamon sani shu odating yomon sani.

Ushbu she'rida *andib –kuzatib , dämädä – hamma vaqt, säni- seni* so'zlarini oladigan bo'lsak, shoir bu so'zlarni qo'llash bilan birgalikda she'rining ta'sirchanligini ham oshiradi.

Suhbatlashib qolganim dam, qizg'onursan chiqoning ham.

Na bo'libdi mehirimni men, u bilan ko'rsam baham.

Laylivashim, hamon sani shu odating yomon sani⁵.

Keyingi parchada *čiqaniñ* shevadagi so'zi dugonang o'rniga, *Nä bolibdi* esa *nima bo'libdi* o'rnida foydalangan.

Hazlikdur, to hayot bor, oshiq'lara jononlar,

To'tiga shakkariston, bulbulga gulistonlar.⁶

“Hazlikdur, to hayot bor” g'azalida *hazlik* so'zi 3 o'rinda ishlatilgan bo'lib, *mazza* so'zi o'rnida qo'llanilgan va uni leksik dialektizm desak mubolag'a bo'lmaydi.

Shahlo ko'zli Sayyora, ko'nglim ketdi sen yora,

Yoqma umring qo'l berib **cho'loshiq** bir ayyora.

Dil bersang munosibdur muhabbating yo'linda

Sadoqatda meningdek jasoratga tayyora.

Shu qiz sango deb loyiq, **potiya** bering, xaloyiq.⁷

“Endi o'zing top chora” she'rida *čolāšiq~chalkash, potiya~fotihaso*zlari kuchli fonetik o'zgarishga uchragan.

Ushbu she'rlarni birinchi marta o'qiyotgan dialekt egasi she'rning nomlanishidayoq, she'r boshdan oyoq shevada yozilgan degan fikrga boradi va barcha so'zlarni o'z shevasiga monand o'qiydi. Bu orqali, dialektologiya bilan neyrologiyani ham ayrim jihatlari bog'liq.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, o'z she'rlarida dialektizmlarni qo'llash orqali shoir she'rning ta'sirchanligini oshirgan, she'rga o'zgacha badiiy-estetik ruh bag'ishlagan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Reshetov V. V., Shoabdurax-monov Sh., O'zbek dialektologiyasi, T., 1962.
2. O'zME. Birinchi jild. Toshkent. 2000-yil
3. Oshiq Erkin. O 'lguncha sizni derman. -T ., 'G 'afur G 'ulom'', 2007. –B.114

⁵ Oshiq Erkin. O 'lguncha sizni derman –T., 'G 'afur G 'ulom'', 2007. –B. 69.

⁶ Oshiq Erkin. O 'lguncha sizni derman –T., 'G 'afur G 'ulom'', 2007.—B .21.

⁷ Oshiq Erkin. O 'lguncha sizni derman –T ., 'G 'afur G 'ulom'', 2007. –B .21.

